

**MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA
PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATI**

Muxamadaliyeva Mohira Xikmatullayevna

Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Universitet o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqola maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash asoslari haqida bo'lib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning prinsiplari va usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha tarbiya, oxloq, odob, bola, asoslar.*

Аннотация: *Статья посвящена основам нравственного воспитания дошкольников, принципам и методам воспитания дошкольников на основе общечеловеческих ценностей.*

Ключевые слова: *Дошкольное учреждение, нравственность, этикет, ребенок, основы.*

Resume: *The article is devoted to the basics of moral education of preschoolers, the principles and methods of upbringing preschoolers on the basis of universal human values.*

Key words: *Preschool, morality, etiquette, child, fundamentals.*

Bolaga yaxshilik va yomonlik haqidagi asosiy tushunchalarni o'rgating, boshqalarga hurmatni oshiring va jamiyatning munosib a'zosi bo'lishga yordam bering.

Psixologlar do'stlik, adolat, mehribonlik va mehr kabi tushunchalarni o'rgangan bolalarning hissiy jihatdan yuksalish darajasiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ular boshqalar bilan muloqot qilishda va turli xil qiyin vaziyatlarga nisbatan ko'proq bag'rikenglikda muammolarga duch keladilar.

Shuning uchun ota-onalar oilada ma'naviy va axloqiy tarbiya berish uchun poydevor qo'yishni boshlashlari juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolada oddiy haqiqatlarni o'zlashtirish uchun eng ma'qul narsa bo'ladi, bu esa o'z harakatlarini aniqlaydi.

Bolalarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida oilaning roli

Yosh maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, birinchi navbatda, oilaning ta'siri ostida. O'zida xatti-harakatlarning normalari va tamoyillari bolaning o'zi tomonidan qabul qilinadi va standart standart sifatida qabul qilinadi. Ota-onalarning misollari asosida, bola yaxshi va yomon narsalar haqida o'z fikrini qo'shib qo'yadi.

6 yoshgacha bo'lgan bola ota-onasini butunlay ko'chiradi. Agar siz ulardan uzoqroq bo'lsangiz, bolani oliy maqsadlarga rioya qilishga chaqirishingiz foydasiz. Misol keltiring, farzandlaringizning yashashini xohlaganingizcha yashashingiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'lida o'zini o'zi tarbiyalash yaxshi yordam berishi mumkin. Bolani har tomonlama rivojlantirish, boshqalarning xatti-harakatlarini muhokama qilish, yaxshi ishlarga rag'batlantirish.

Maktabgacha tarbiyachilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning eng samarali va tasdiqlangan usullaridan biri bu ertakdir. Tasviriy va konkretlik bolalar uchun qanday xatti-harakatlarning joiz ekanligini tushunishga yordam beradi.

Farzandlaringizni seving, ularga etarlicha e'tibor bering. Bu bolaning kuchiga, o'zlariga bo'lgan ishonchga ega bo'lishiga yordam beradi. Maktabgacha tarbiyachilar uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyatini inobatga olmag. Kichkintoyning qadriyat tizimini shakllantirishiga yordam bering, shunda u qanday harakatlarning yaxshi ekanligini va qanday qilib qabul qilinishi mumkin emasligini yaxshi tushunadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlar va istiqloq istikboli xamda mafkuraviy ong, yashash tarzi hakida, ya'ni avlodlar mushtarakligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uni uch toifaga bo'lish lozim:

Keksa avlod istiklolni ardoqlab shunday erkin va ozod kunlarga yetib kelgani uchun shukronalar aytayotgan balsa, urta avlod talabchan, ochig'ini aytish kerakki, hayotda uz urnini topayotir, ayrim xollarda, iste'molchilik kayfiyatida xam yelib yugurmokda, yosh avlod esa hayotga faol kirib kelmokda, ularning yashash tarzi to'g'risidagi qarashlarning shakllanishida milliy va ma'naviy qadriyatlarning aloxida urni va axamiyati borligini ta'kidlash mumkin va Ayni paytda, ularning hayotdagi ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni, ya'ni mafkuraviy talablarni idrok etishdagi burchi va mas'uliyatini anglash tuyg'usi tobora usayotganliga guvoxmiz.

Xush, ma'naviy qadriyatlarimiz xususida sharq mutafakkirlarimizning ilmiy, ma'rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi kanday? Qayd kilish lozimki o'rta asrlar uygonish davri, bunyodkorlari bulmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz.

Bu borada Ibn Sinoning ma'naviy merosida kator muammolar tizimida axlok-odob masalalari e'tiborli saloxiyatga egadir. Uning «Burch xakida risola», «Axlok xakida risola», «Insof xakida risola» kabi asarlarida axlok-odobning goyat muxim kirralari bayon etilgan .

Mutafakkirlarning asarlarida, jumladan «Tadbiri manzil» risolasida xam inson tabiati azaldan axloqli yoki axloksiz bulmaydi, degan g'oya muxim axamiyat kash etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida asta-sekin shakllana boradi. Ta'lim-tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson uzida ijobiy axloqiy fazilatlarini shakllantiradi yoki «yomon dustlar» ya'ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi .

Axloqiy tarbiya metodlari-bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab

olishiga, ularda ma'daniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg`ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo`linadi:

I-guruh axloqiy ongini, ya'ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

II-guruh madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

III-guruh axloqiy his-tuyg`ular va munosabatlarni rag`batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlardir.

Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg`ular va shaxsiy sifatlarini tarbiyalashni ta'minlaydi.

Bu guruh metodlariga qo'yitladigan asosiy talablar: bolalarni yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg`usiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish.

Bolani noo`rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyan man etiladi. Hamma metodlarda ma'lum izchilik bilan kompleks ravishda foydalaniladi. Bu metodlarning asosiy vaziflari quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolalarda ijobiy, axloqiy hislarni qo'zg`ata olish, asar qaxramonlariga hamdardlik bildirish, yutug`idan quvonib, muvaffaqiyatsizligi birgalashib achinish;

bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarning mazmunini ochib berish; axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg`ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z hayoti bilan bog`liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg`in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg`ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llaydi, chunki u shunday qilingandagina yaxshi xulq namunalari o`rgatishi mumkin.

Insonparvarlik hissini tarbiyalash. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda jamoachilik munosabatlarining boshlangich belgilari axloqiy sifatning murakkab guruhidir. Bunda bolalarning do'stlashishi, birga o`ynash va mehnat qilish xohishi, qobiliyati, boshqalarning xohishi, qiziqishi bilan hisoblasha olishi, bir-biriga yordam bera olishi, topshiriqni vijdonan bajarishi, umumiy ish va umumiy narsa, buyumlar uchun g'amxo`rlik qilish kabi axloqiy sifatlar majmuasi kiradi.

Bunday his-tuyg`u, tasavvur, tushunchalar bola shaxsining ijtimoiy yo`naltirilgan xolda shakllanishiga yordam beradi, bolada insonparvarlikning dastlabki namunalari shakllanishiga ta'sir etadi.

Kichikintoylarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o`rin tutadi.

Insonparvarlik hissi axloq normalari va koidalarni o`rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'lish kerak deganingiz bilan u yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik va yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi etishmaydi. Eng muhimi, bu yoshdagi bolalar-yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi va bunda har bir qulay vaziyatdan foydalaniladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimini qoqib qo'yish, yupatish, yaxshi so'zlar aytib ko'nglini ko'tarish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatgan xizmatidan xursand bo'lishga o'rgatish va hokazo.

Tarbiyachi kichkina bolalarga ayrim xatti-xarakatlariii syujetli o'yinchoqlar bilan o'ynash orqali ko'rsatadi. Masalan, qo'g'irchoqni erkalab, silab-siypalab, erkalatuvchi so'zlar aytib uxlashga yotkizadi, kasalga raxmdillik ko'rsatadi, hayvonlarni erkalab tagini tozalaydi, ovqat beradi. O'simliklarning ehtiyotkorlik bilan bargini artadi, tagini tozalaydi, tuprog'ini yumshatadi va xokazo.

Insonparvarlikka o'rgatuvchi o'yin-mashg'ulotlar o'tkaziladi (kichkina guruhlarda «Lolaxonni uxlashga yotkizamiz», «Ayiqqolvonni kuzatib qo'yamiz» va shunga o'xshashlar). Katta guruhda «Yaxshi kishi to'g'risida», «Saxiylik», «Rahmdillik» mavzularidagi mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Kunduzgi va kechki sayrlarda tarbiyachi bolalarga «Mushuk» ertagini o'qib beradi, rasmlarni birgalikda tomosha qilishadi, kino-, dia-, telefilmlar, radioeshittirish va boshqalar namoyish etadi.

Ko'pgina tarbiyachilar kattalarga va bolalarga xushmuomalada bo'lish orqali kichkintoylarni shunga o'rgatish uchun qulay muxitni vujudga keltiradilar.

Kattalar har bir bolaga mehribonlik bilan munosabatda bo'lib, ularda shu hislatni tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar. Bolalarda tengdoshlari bilan aloqada bo'lish extiyoji juda vaqtli, bir yoshga to'lish arafasida ko'rina boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bir-birini yoqtirishga asoslangan aloqalarini tashkil etadi, o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yadi, tengdoshlariga iltifot ko'rsatishni rag'batlantiradi va qo'llab-kuvvatlaydi. U bolalarning o'yindagi dastlabki uyushmalarini tashkil etadi, ma'qullaydi va rag'batlantiradi («Ra'no bilan Yulduz juda yaxshi, ahil o'ynayapti»). Birgalikdagi faoliyat jarayonida pedagog bolalarni bir-biriga yordam berishga o'rgatadi.

Tarbiyachi bolalarni tengdoshlari bilan salomlashish hammalarini esa yangi kelgan kishining salomiga javob berishga odatlantiradi, kasal bolaga xat yozishni, unga rasmlar yuborishni, telefon qilishni va hokazolarni taklif etadi. Anchadan beri bog'chaga kelmayotgan bolaning kelishi quvonchli bo'lib, unga aloxida e'tibor bilan qaraladi.

O'rta yoshdagi bolalarning uyushmalari ancha barkaror bo'ladi, ular birgalikda o'ynabgina qolmay, birgalikda mehnat ham qiladilar. Masalan, bir necha bolalarga uy jihozini yoki xona o'simliklari bargini artish topshirig'i beriladi. Ular birga ishlash qiziqarli bo'lib, yana ko'proq ishlar qilish mumkinligiga ishonch xosil qiladilar. Besh yoshga qadam qo'ygan bolalar o'z harakatlarini muvofiklashtirishni, birgalikdagi o'yin

yoki ishlardan oldin kelishib olishni bilishlari kerak. Bunta tarbiyachining: Kim kim bilan o`ynaydi? O`yinda kim nima bo`lishni xoxlaydi?-qabilidagi savollari yordam beradi. U totuvlik bilan o`ynayotgan va mehnat qilayotgan, o`z tashabbusi bilan o`rtog`iga yordamga keladigan bolalarni rag`batlantiradi.

Bog`chada bolalarning tug`ilgan kunlarini nishonlash an`anasi o`zaro munosabatlarga samimiylik kiritadi.

Tarbiyachi bolalarning bir-biriga hurmat va e`tibor ko`rsatishlarini mashq qildirish uchun kundalik hayotdagi, turmush faoliyatidagi xar qanday imkoniyatdan foydalanadi. Yuvinish va sayrga chiqish vaqtida tezroq harakat qilish talab etiladi. Bunga sabab boshqa birovni to`xtatib qolish mumkin emasligidadir. Kiyinish va echinish vaqtida tarbiyachi bolalarni o`rtoqlariga yordam so`rab murojaat qilishga va jon deb yordam ko`rsatishga o`rgatib boradi.

5-6 yoshli bolalarning o`zaro munosabatlari ancha murakkab bo`ladi. Pedagog bolalarning birgalikdagi ishlarini tashkil etishga, ularning ko`proq mustaqil bo`lishlariga erishadi. Ularda tashkilotchilik qobiliyatlari, janjal va nizolarni haqqoniy va bamaylixtir xal etish, jamoa fikri bilan hisoblashish malakalarini tarbiyalaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda insonparvarlikni tarbiyalash uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayondir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar jamoasi va ota-onalar o`zaro xamkorlikda ishlab, bolalarda ijobiy his-tuygularni uyg`otishga qaratilgan tarbiya usullarini izchillik bilan amalga oshirib borishlari kerak.

Xarakterning axloqiy sifatlarini tarbiyalash. Xarakter hayot va tarbiya ta`siri bilan xosil bo`lgan va mustaxkamlangan muayyan munosabat usuli va umuman kishi xulqidir.

Shaxs xarakteri deyilganda, avvalo insonning jamiyat oldidagi burchiga, kishilarga va o`ziga munosabati ko`zda tutiladi.

Iroda xarakterning asosiy xususiyatidir. Irodaviy xususiyatlar xarakterning amaliy tomonini o`z ichiga oladi. Fidoiylilik, matonatlilik, o`zini tuta bilish, jasurlik va jur`atlilik muxim irodaviy xususiyatlar hisoblanadi. By xususiyatlarning barchasi inson hayoti, uning xar qanday faoliyati uchun zarurdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xarakterning irodaviy xususiyatlari-bu bolaning oldiga maqsad qo`yib, uni bajarishda qiyinchiliklarni engib, boshlangan ishni oxiriga etkaza olishi, biror ishdan o`zini tiya bilish, unda dadillikni tarbiyalash uchun zarurdir.

Xarakterning irodaviy xususiyatlarini tarbiyalashning metodik usullari xilmalidir. Eng muximi esa, tevarak-atrofdagi ajoyib kishilar hayotidan misollar keltirish, turmush faoliyatidagi xar qanday imkoniyatdan foydalanadi. Yuvinish va sayrga chiqish vaqtida tezroq harakat qilish talab etiladi. Bunga sabab boshqa birovni to`xtatib qolish mumkin emasligidadir. Kiyinish va echinish vaqtida tarbiyachi bolalarni o`rtoqlariga yordam so`rab murojaat qilishga va jon deb yordam ko`rsatishga

o`rgatib boradi.

5-6 yoshli bolalarning o`zaro munosabatlari ancha murakkab bo`ladi. Pedagog bolalarning birgalikdagi ishlarini tashkil etishga, ularning ko`proq mustaqil bo`lishlariga erishadi. Ularda tashkilotchilik qobiliyatlari, janjal va nizolarni haqqoniy va bamaylixotir xal etish, jamoa fikri bilan hisoblashish malakalarini tarbiyalaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda insonparvarlikni tarbiyalash uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayondir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar jamoasi va ota-onalar o`zaro xamkorlikda ishlab, bolalarda ijobiy his-tuygularni uyg`otishga qaratilgan tarbiya usullarini izchillik bilan amalga oshirib borishlari kerak.

Xarakterning axloqiy sifatlarini tarbiyalash. Xarakter hayot va tarbiya ta`siri bilan xosil bo`lgan va mustaxkamlangan muayyan munosabat usuli va umuman kishi xulqidir.

Shaxs xarakteri deyilganda, avvalo insonning jamiyat oldidagi burchiga, kishilarga va o`ziga munosabati ko`zda tutiladi.

Iroda xarakterning asosiy xususiyatidir. Irodaviy xususiyatlar xarakterning amaliy tomonini o`z ichiga oladi. Fidoiylilik, matonatlilik, o`zini tuta bilish, jasurlik va jur`atilik muxim irodaviy xususiyatlar hisoblanadi. By xususiyatlarning barchasi inson hayoti, uning xar qanday faoliyati uchun zarurdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xarakterning irodaviy xususiyatlari-bu bolaning oldiga maqsad qo`yib, uni bajarishda qiyinchiliklarni engib, boshlangan ishni oxiriga etkaza olishi, biror ishdan o`zini tiya bilish, unda dadillikni tarbiyalash uchun zarurdir.

Xarakterning irodaviy xususiyatlarini tarbiyalashning metodik usullari xilma-xildir. Eng muximi esa, tevarak-atrofdagi ajoyib kishilar hayotidan misollar keltirish, tarbiyachi va ota-onalarning shaxsiy namuna ko`rsatishidir.

Biroq irodani tarbiyalash uchun shaxsiy namunaning o`zi etarli emas. Bolalarda irodani tarbiyalashda ularning shaxsiy faoliyati, shaxsiy tajribasi, mashq qilishi, bolaning o`z faolligi muxim vosita bo`lib xizmat qiladi. Bunda tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarning o`z oldilarida turgan faoliyat (o`yin, mehnat, mashg`ulot)ning aniq maqsadini belgilab olishlarini ta`minlaydigan sharoit yaratishdir.

O`yin boshlashdan oldin tarbiyachi bolalardan nimani va qanday o`ynashlarini, o`yin uchun nimalar kerakligini, rollarni qanday taqsimlashlarini so`raydi. Bolalarda qat`iylilik, javobgarlik, to`g`rilik kabi irodaviy axloqiy sifatlarini tarbiyalash muxim axamiyatga ega. Masalan, 4-5 yoshli bolalarni qurilish materiali bilan o`ynab bo`lgandan keyin uni yashikka yaxshilab taxlab, joylashtirib qo`yishga o`rgatish kerak. Ko`pincha bolalar avvaliga bu ishning uddasidan chiqisha olmaydi. Shunda tarbiyachi boshqacha qilib joylashtirishni taklif etadi, agar bunday usul orqali bola to`g`ri joylashtira olsa, u xursand bo`lib, ikkinchi marta yig`ishtirayotganda uni yaxshiroq joylashtirishni o`ylab amalga oshiradi, tezroq natijaga erishadi.



«Yashirilgan narsani top» o`yinida tarbiyachi qaysi bola to`g`ri o`ynayapti-yu, qaysi bola ayyorlik qilayotganini tez bilib oladi. Buning uchun quyidagicha usul qo`llaniladi: bolalar devor oldida yarim doira bo`lib turishadi. Ularga buyumni yashirguncha ko`zlarini yumib turish taklif etiladi. Keyin bir ko`zlarini ochib yashirilgan narsani izlashga borishadi. 1-2 ta bola to`g`ri topadi va darrov olib, mana men birinchi topdim, deb gapiradi. O`yin takror-takror qaytarilganda xam xuddi shu bolalar yana topishadi. Endigi vazifa bolada to`g`rilikni tarbiyalashga yordam beruvchi tarbiyaviy ta`sirni topishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Qurbonov Sh., E. Seytxalilov va boshqalar. Milliy istiqlol g`oyasini shakllantirishda tashkiliy–uslubiy yondashuvlar. Toshkent, “Akadememiya”. 2002

INTERNET MATERIALLARI

WWW. ip kpol aaa net. Ru

WWW. iet. mesi. Ru

WWW. adpima. Com